



Reg. № 056/

“TASDIQLAYMAN”

“Sho‘rtan GKM”

Bosh direktori o‘rinbosari

N. Xalilov
“22” 05



“Sho‘rtan GKM” MChJ ehtiyoji uchun
Daraxtlarni zararli xashoratlarga qarshi dorilash maqsadida
(Deltametrin 10% 100 g/l) dori vositasini xarid qilish uchun

TEXNIK TOPSHIRIQ

1. UMUMIY QOIDALARI

1.1 Nomi
1) Deltametrin 10% 100 g/l dori vositasi (daraxtlar uchun).
1.2 Mahsulotlarni sotib olinishining asosiy maqsadi
2024 yil ShGKM bosh direktori o‘rinbosari N.Xalilovning 07.05.2024 yildagi №056/8766 sonli bildirigisiga asosan sotib olish. Daraxtlarning barglarini zararli xashoratlardan eb qo‘yayotganligi sababli.
1.3 Yangiligi to‘g‘risida ma‘lumot (i/chiqarilgan yili)
Mahsulotlar yangi va 2024 yilda ishlab chiqarilgan bo‘lishi kerak
1.4 Ishlab chiqarish bosqichlari/tayyorlanishi
Dori vositasi texnologik jarayoni va sertifikatlashiga muvofiq ishlab chiqarilgan bo‘lishi kerak
1.5 Ishlab chiqarish va tayyorlash uchun xujjatlar/tayyorlanishi
O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilayotgan normativ va rahbariyat hujjatlari

2. QO‘LLANISH SOHALARI

“Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi” MChJ Ko‘kalamzorlashtirish tarmog‘i agrouchastkalari

3. FOYDALANISH SHARTLARI

Ishlab chiqarilgan dori vositalarini kafolat muddatlari hamda mahsulot sertifikatlashtirilgan bo‘lishi kerak.

4. TEXNIK TALABLAR

4.1 Asosiy texnik talablar

Deltametrin 10% 100 g/l dori vositasi – 20 litr

Qadogi: 100 ml, 1 l

Ta'sir qiluvchi moddasi:

Deltametrin 10% (100 g/l)

Qo'llanilishi:

Ushbu preparat ildizqirkar, chigirtkasimonlar, kolorado qo'ng'izi, bargo'rar qurtlar, olma qurti, shira, trips, tut parvonasi, makka parvonasi, xasva, shilliqurt kabi zararkunandalarga qarshi kurashda keng qo'llanish uchun.

Boshqa peretroidlar kabi zararkunandalarning nerv sistemasiga ta'sir qiladi, uning faoliyatini buzadi.

Sirtan va me'da ichak orqali ta'sir qiladi. U zararlanishning oldini olish uchun va zararlanish boshlangandan so'ng ham qo'llaniladi va 15 kun davomida o'z ta'sir kuchini saqlab turadi.

Deltametrin qo'llashda yerning namligi kamida 70% bo'lishi kerak!

G'o'za -Trips, kandala -0,15-0,2 -7-10 gr -O'simlikning usuv davrida

Pomidor-Ildizqirqar, (sim qurt, ko'k qurt), oq qanot, shira, trips-0,1-0,2-5 ml

10 litrga 5-7 gr eritib bargidan kechki salqinda, yangi ekilgan ko'chatlarda 10 litr suvga 5 ml eritib har bir ko'chat tagiga 200 ml ishchi eritma tanasidan qochirib quyiladi

Poliz ekinlari-Osiyo un qurti, shira, trips, ildizqirqar tunlamlari-0,1-0,2-5-10 ml

Ekilgandan 5 kun o'tib nam yerga ildizqirqarga qarshi, holatga qarab yana takror

Kartoshka-Ildizqirqar, tunlamlar, oq qanot, kolorado qo'ng'izi-0,1-0,3-5-10 ml

O'simlikning usuv davrida

Yaylovda-Chigirtkasimonlar yaylov zararkunandalari-0,1-5 ml

Zararkunandalar paydo bo'lishi boshlashi bilan

Issiqxona ekinlar-Shira, trips, ildiz qirqar tunlamlar-0,3-0,4-5-10 ml

Zararkunandalar paydo bo'lishi boshlashi bilan

4.3 YORLIQQA TALABLAR

Dori vositalarini - Yorliqda quyidagilar mavjud bo'lishi kerak:

- Mahsulot nomi;
- Ishlab chiqarilgan shaharning nomi;
- Ishlab chiqargan korxonaning mahsulot nishoni (mavjudligi);
- Dori vositalarini sifati;
- Kafolat muddatlari;
- Shartli belgilari;
- Ishlab chiqaruvchining yuridik manzili.
- Texnik shartlari

4.4 Sifat va qadoqlashga qo'yilgan talablar

Sifat standartlari mavjud bo'lishi kerak. Iste'molchi bilan kelishilgan holda o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.



Har bir mahsulotni tashish va saqlashda, namga chidamli qadoqlash materialiga o'ralishi kerak.

5. ETKAZIB BERISH VA QABUL QILISH TALABLARI

5.1 Etkazib berish va qabul qilish talablari

Mahsulot qabul qilish xaridor hududida, komissiya tomonidan amalga oshiriladi. Etkazib berilayotgan mahsulot yangi qadoqlangan va mahsulot nishoni bo'lishi hamda sifatsiz bo'lmashligi kerak. Agar mahsulot sifatsiz bo'lsa yoki miqdori kam bo'lsa etkazib beruvchi tomonidan qaytarilishi yoki etkazib beruvchi tomonidan almashtirilishi kerak.

Buyurtmachi etkazib berishda / topshirishda quyiladigan talablar

-Mahsulot sifat sertifikatini va pasporti bilan tegishli ravishda rasmiylashtirilgan bo'lib, yuklanishi kerak

- Ishlab chiqaruvchining manzili, yorlig'i (mavjudligi);

- Mahsulot nomi;

- Joriy standartliligi;

- Sifat ko'rsatkichi;

- O'tkazilgan sinovlar natijasi hamda mahsulotning sinovlar natijasi talablari

6. TRASPORT TALABLARI

Avtotransport vositasi yuk tashish qoidalariga mos hamda yopiq holatda bo'lishi shart.

7. KAFOLAT MUDDATI TALABLARI

Ishlab chiqaruvchi tashish va saqlash shartlariga rioya etib, texnik topshiriq talablariga muvofiq kafolatlaydi.

8. XAVFSIZLIK TALABLARI

Umumiy xavfsizlik talabi –bo'yicha GOST R 12.0.001, xavfsizligi bo'yicha GOST 12.1.004

9. SIFAT VA KLASSIFIKASIYA TOIFASIGA TALABLAR

Mahsulot ko'rsatilgan texnik talablar va parametrlarga mos bo'lishi kerak. Sifatsiz mahsulotlar qabul qilinmaydi va qaytarib yuboriladi. Etkazib berilayotgan mahsulotlar zavod qadog'ida va zavod nishonida bo'lishi kerak. Yaroqlilik muddati qadoqda ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

10. DOIMIY ETKAZIB BERISHDA VA VAQTIGA TALABLAR

Mahsulotlarning umumiy soni yuqorida ko'rsatilgan. Etkazib berish muddati 2024 yilning 2-choragi uchinchi oyi.

11. BOSHQA XIZMATLAR UCHUN TALABLAR

Xarid qiluvchining manzili: tel 90-639-52-00

«Sho'rtan GKM» MChJ

O'zbekiston Respublikasi

Qashqadaryo viloyati

G'uzor tumani

Sho'rtan qo'rg'oni, indeks: 180300

KT boshlig'i:

G.Nosirov

IBX boshlig'i:

T.Diyorov

KT boshlig'i o'rinbosari:

R.Nomozov

MTRB muhandisi:

Sh.Bozorov

KT xo'jalik ishlar mudiri:

Sh.Bozorov

